



O'QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIDA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI

Egamberdiyeva Muxlisaxon Dilmurod qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi
3-bosqich 302-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'qituvchining pedagogik faoliyatida kreativ fikrlashning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kreativ fikrlash pedagog shaxsining yangilikka intilishi, didaktik yondashuvlar va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Pedagog tomonidan kreativ fikrlashning o'quvchi shaxsini rivojlantirish ularni mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va noan'anaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, innavatsion ta'lim, pedagogik faoliyat, O'qituvchi kompetensiyasi, ta'lim metodikasi, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение креативного мышления в педагогической деятельности учителя. Креативное мышление рассматривается как важный фактор, способствующий стремлению педагога к новизне, дидактическим подходам и эффективной организации учебного процесса. Особое внимание уделяется тому, как креативное мышление способствует развитию личности учащегося, формированию навыков самостоятельного мышления, решения проблем и принятия нестандартных решений.

Ключевые слова:

креативное мышление, инновационное образование, педагогическая деятельность, компетенции учителя, методика преподавания, педагогические технологии, современное образование, педагогические инновации.

Abstract

This article analyzes the role and significance of creative thinking in the pedagogical activities of teachers. Creative thinking is presented as a crucial factor

in a teacher's inclination toward innovation, didactic approaches, and the effective organization of the educational process. The article examines how a teacher's creative thinking contributes to the development of students' personalities, fostering their abilities to think independently, solve problems, and make unconventional decisions.

Keywords: Creative thinking, Innovative education, Pedagogical activity, Teacher competencies, Teaching methodology, Pedagogical technologies, Modern education, Pedagogical innovations,

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kreativ fikrlash qobiliyati uning professional kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Kreativ fikrlash o'qituvchiga o'quv jarayonini samarali tashkil etish, yangicha yondashuvlarni joriy etish hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda asosiy omilga aylanishi zarur.

O'qituvchining kreativ fikrlash qobiliyati uning pedagogik faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Kreativ fikrlash o'qituvchiga o'quv jarayonini nafaqat an'anaviy usullar bilan, balki innovatsion yondashuvlar orqali ham tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi tub islohotlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchidan yuqori darajadagi kreativlikni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasida: pedagog xodimlar ta'lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bolishi, o'z ustida ishlashi va doimiy ravishda kasbiy mahoratini oshirishi shart.[1]

Asosiy qism:

Pedagogik faoliyat avvalo inson bilan ishlashga asoslangan ijtimoiy jarayon bo'lib, bu jarayonda o'qituvchi markaziy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'qituvchining insoniy fazilatlari, shaxsiy yondashuvi va kreativ fikrlash qobiliyati uning kasbiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Kreativ fikrlash — bu yangicha yondashuvlar orqali muammolarga noodatiy yechim topish, innovatsion fikrlarni ilgari surish va ularni amalda qo'llay olish qobiliyatidir. Ayniqsa, pedagogik jarayonda bu ko'nikma o'quvchilarning faolligini



oshirish, darsni jonlantirish va natijadorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.[2;B.25]

Kreativ fikrlash bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamon bilan hamnafas bo'lish, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, ularning individual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun o'qituvchi nafaqat bilimli, balki yangicha yondashuvga ega, ijodkor va yangilikka ochiq bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kreativ fikrlash o'qituvchining pedagogik faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Kreativ fikrlovchi o'qituvchi dars jarayonida shablon usullardan voz kechib, har bir mavzuga o'zgacha yondashuv bilan yondashadi. U turli interaktiv metodlarni qo'llab, o'quvchilarni o'z fikrini mustaqil ifodalashga undaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarda bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi.

Shuningdek, kreativ o'qituvchi zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va multimedia vositalaridan samarali foydalana oladi. Bu esa nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning bilimni chuqurroq egallashlariga xizmat qiladi. U darsda muammoli vaziyatlar yaratish, rol o'ynash, loyihalar ishlab chiqish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Shu o'rinda rus pedagogi Anton Semyonovich Makarenko quyidagi fikrini keltirish mumkin:

“Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rol ni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib bora olmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor.”[3;B.65]

Yuqoridagi Anton Semyonovich Makarenkoning fikrida inson omili, ya'ni o'qituvchining shaxsiyati, hissiyoti va individualligi ta'lim jarayonidagi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan. U o'qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki sinf oldida "rol" ijro etuvchi aktyor sifatida tasvirlaydi. Bu fikrdan shuni anglash mumkinki, ta'lim samaradorligi faqat bilim emas, balki o'qituvchining insoniy fazilatlariga — uning mimikasi, ovoz ohangi, ruhiy holati, o'quvchilarga bo'lgan munosabati kabi jihatlarga ham bevosita bog'liqdir.

Kreativ fikrlash (ijodiy fikrlash) o'quvchi uchun juda ko'p foydali tomonlarga ega. Quyidagilar eng asosiylari:

1. Muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi

O'quvchi odatiy usullardan tashqari yo'llarni ham izlaydi, bu esa uni mustaqil va samarali fikrlovchi qiladi.

2. Tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi



Kreativ fikrlash tanqidiy yondashuv bilan bog'liq. O'quvchi ma'lumotni tahlil qilish, savollar berish va asosli xulosalar chiqarishga odatlanadi.

3. O'quv jarayonini qiziqarli qiladi

Yaratuvchanlik o'quv jarayoniga o'yin, loyiha, muammoli vaziyatlar kabi faol metodlarni olib kiradi. Bu esa o'quvchining qiziqishini oshiradi.

4. Moslashuvchanlikni oshiradi

Turli sharoitlarda yangicha fikr yurita olish — kelajakdagi o'quv va ish hayoti uchun muhim ko'nikma.

5. O'ziga ishonchni oshiradi

O'quvchi o'z fikriga ishonadi, yangi g'oya bildirganidan cho'chimaydi, bu esa uning liderlik qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Jamoaviy ishlashga hissa qo'shadi

Kreativ fikrlar muhokama va hamkorlikni talab qiladi. Bu esa o'quvchilar o'rtasida muloqot va jamoada ishlashni kuchaytiradi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida kreativ fikrlashning ahamiyati nafaqat o'quvchilarning rivojlanishiga, balki o'qituvchining o'ziga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Quyida kreativ fikrlashning o'qituvchiga qanday foyda keltirishi haqida ilmiy asoslangan fikrlar keltirilgan:

1. Muammolarni hal qilish qobiliyatining oshishi: Kreativ fikrlash o'qituvchiga o'z faoliyatida yuzaga keladigan turli muammolarni yangi va samarali usullar bilan hal qilish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarga yanada samarali ta'lim berishga yordam beradi.

2. O'zini ifoda etish va o'ziga bo'lgan ishonchning ortishi

Kreativ fikrlash o'qituvchining o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam beradi.

3. Hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarining rivojlanishi

Kreativ fikrlash o'qituvchiga hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim muassasasida ijobiy ish muhitini yaratadi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

4. Kasbiy rivojlanish va yangiliklarga ochiqlik

Kreativ fikrlash o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining yangiliklarga ochiqligini oshiradi va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.

5. O'zgarishlarga moslashuvchanlik va barqarorlik

Kreativ fikrlash o'qituvchiga o'zgarishlarga moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga tezda moslashishga va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Amerikalik pedagog Patti Drapeau kreativ fikrlashni "muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash" deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, kreativ fikrlash o'quvchilarni o'quv topshiriqlarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda, bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Drapeau shuningdek, o'qituvchilarga kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil etishni maslahat beradi, chunki bu o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ darslarni rejalashtirish uchun to'rtta asosiy yo'lni taklif qiladi:

1. Kreativ fikrlash fe'llarini aniqlash – o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan fe'llarni belgilash.

2. Kreativ strategiyalarni qo'llash – dars jarayonida ijodiy strategiyalarni amaliyotga tatbiq etish.

3. Kreativ jarayonlardan foydalanish – o'quvchilarga ijodiy jarayonlarni tushuntirish va ulardan foydalanishni o'rgatish.

4. Kreativ mahsulotlarni qo'llash – o'quvchilarning ijodiy mahsulotlarini baholash hamda ularni qo'llab-quvvatlash.[4;B.6]

Patti Drapeauning taklifidan kelib chiqqan holda shuni ayta olamanki : kreativ fikrlash fe'llarini aniqlash, strategiyalarni qo'llash, jarayonlardan foydalanish yangiliklar kiritish barchasi o'qituvchining tashabbusi, hissiy yondashuvi va shaxsiy mahorati bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayonda pedagog asosiy o'ringa ega, chunki kreativlikni rag'batlantiruvchi muhitni aynan o'qituvchining o'zi yaratadi. U o'zining ochiqligi, yangilikka bo'lgan ijobiy munosabati va individual yondashuvi bilan o'quvchida ishonch uyg'otadi, uni erkin fikrlashga undaydi.

Xulosa Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kreativ fikrlashi nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda, balki ularning mustaqil fikrlashi, muammolarga yechim topa olishi hamda ijodiy salohiyatini ochishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kreativ fikrlovchi o'qituvchi dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil eta oladi, shuningdek, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsion metodlarni qo'llaydi.



Shunday ekan, pedagogik faoliyatda kreativ yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. ta'lim jarayonida o'qituvchidan nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish ham talab etiladi. Bu esa o'qituvchidan kreativ fikrlashni, yangicha yondashuvlarni qo'llashni, doimiy izlanishda bo'lishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, № 3PY-637. 19-modda.
2. Nazarova, D.M. Kreativ pedagogika: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2020. – B. 25.
3. Makarenko, A.S. Ota-onalarga kitob. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1981. B.65
4. Drapeau, P. (2014). Sparking Student Creativity: Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving. Alexandria, VA: ASCD. 1-bob, B.6
5. <https://lex.uz/docs/5013007>